

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYA**

Toshkent – 2024

Dilshodova D.D. O'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishda interfaol o'qitish usullarning o'rni	96
Rustamov Sh.Sh. Talabalar innovatsion kompetenligini rivojlantirishning ijtimoiy - psixologik asoslari.....	100
Sherqo'ziyeva D.A., Umarova Z.A. Logopedik mashg'ulotlar uchun foydali onlayn platformalar.....	104
Rustamova M.I., Umarova Z.A. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati.....	106
Umarova Z.A. O'zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishda talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish masalasi	109
Abdugafforova N.F. Exploring the role of motivation in english language learning	112
Safarova Z. Case method in teaching pedagogical approach.....	115
Валиева Н.З. Роль женщин в науке как фактор повышения научного потенциала в новом Узбекистане	118
Usmonov M.T. Technology using robotrack IDE Software	121
Marasulova D. N., Tilonboyeva D.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishning lingvopsixologik xususiyatlari.....	124
Maxmudaliyeva M. M., Shodmonov R.G'. Xalqaro grantlar yutish va ularning ahamiyati.....	128
Rahmatullayeva M., Shodmonov R.G'. BMT tashkiloti va uning dunyo hamjihatidagi ro'li.....	135
Nasrillayeva M.A., Shodmonov R.G'. Topik haqida tushuncha.....	138
Asqarova F., Shodmonov R.G'. Ko'p tillarni o'rganish haqida.....	141
Iskandarova N.Q., Shodmonov R.G'. Bilingualismning afzalliklari: ikki yoki undan ko'p tillarni bilishning insonning kognitiv va kulturologik ko'nikmalari bo'yicha	143
Erkinova R. E., Shodmonov R.G'. Yangi tilni o'rganish metodikasi	146
Shukurova M.Z., Shodmonov R.G'. Yunesko:tashkil topishi va istiqboli.....	148
Omondullayeva D., Shodmonov R.G'. Til o'rganish va turizm.....	152
Norimbatov D.Q., Shodmonov R.G'. IELTS and TOEFL: similarities and differences sides.....	155
Xoliqberdiyeva M.A., Shodmonov R.G'. Nega yoshlarimiz ielts va ceft olishga intilmoqdalar?	160
G'anijonova D. G', Shodmonov R.G'. Hozirgi vaqtda yoshlar nega sat imtihonini topshirib, xorijda o'qishni xohlayabdi?	163

qoplash uchun foydalanishlari mumkin edi. Bu moliyaviy stressni engillashtirishga yordam beradi.³

Umumiy stipendiyalar statistikasi: har yili Qo'shma Shtatlarda 1,7 milliondan ortiq stipendiyalar va xususiy stipendiyalar beriladi (Dikler, 2020), kollej talabalarining 25 foizi stipendiya va grantlardan pul olgan (Salli Mey, 2021), har yili bakalavriyat va magistratura talabalari uchun taxminan 1,581,000 stipendiyalari mavjud (Scholly, 2020), biroq, har sakkizinchi kollej talabasidan faqat bittasi stipendiya oladi (Kantrowitz, 2019), grantga sazovor bo'lgan talabalarning 97 foizi 2,500 dollar yoki undan kamini oladi (Kantrovitz, 2020), bundan tashqari, talabalarning atigi 0,2 foizi 25,000 dollar yoki undan ko'p stipendiya oladi (Unigo, 2021), xususiy stipendiyalarga sazovor bo'lgan talabalarning 50% stipendiyalarni almashtirishni boshdan kechiradi. Shu bilan birga, maktablarning 62 foizi institutsional grantlarni, 55 foizi talabalar kreditlarini kamaytiradi va 24 foizi talabalar ishini kamaytiradi (Kantrowitz, 2021).

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, hukumat grantlarining turlari ko'p. Imkoniyat, imtiyozlari ham anchagina. Shu bilan birga ushbu grantlarni yutish ham raqobat katta bo'lanib oson bo'lmaydi. Boshqa raqiblar ko'pdek tuyilsa ham o'z omad sinab ko'rishi kerak, gap nomzod raqobatchilardan kuchsizroq tuyilsa-da, grantning umumiy talablariga mos bo'lgan vaziyatlar haqida ketyapti. Tayyorgarlikni ertaroq boshlash tavsiya etiladi! Chet elda talaba hamyurtlarimizning aksariyati "Scholarship", ya'ni grantlar asosida o'qiydi. Chunki chet mamlakatlarida ta'lim olish qimmat va yashash ham o'qish uchun pul to'lashga ko'p o'zbek oilalarining qurbi yetmaydi. Shuning uchun chetda o'qishni niyat qilganlar, albatta, grant topish payida bo'lishadi.

Shunday ekan, doim maqsadni to'g'ri qo'yish va unga yetmaguncha harakatdan to'xtamaslik kerak. Grant yutib olsangiz, butun hayotingiz o'zgarib ketishi, kamida esa, mablag' tejab qolishingiz mumkin bo'ladi, shunday ekan biror grant dasturini ko'rsangiz va sohangizga mos kelsa, shunchaki hujjat topshirib qo'ying. Boshida yutolmaydigandek tuyilsa ham, ariza topshirib ko'rish kerak. O'zingizga o'zingiz rad javobini bermang va hech qachon taslim bo'lmang. Zero, oliy maqsad g'alabaga yetaklaydi!

BMT TASHKILOTI VA UNING DUNYO HAMJIYATIDAGI RO'LI

Rahmatullayeva Maryam¹

*¹Xalqaro Nordik universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li²

²Xalqaro Nordik universiteti doktoranti

³ <https://www.myscholarship.app/why-are-scholarship-important>

Annotatsiya: BMTning kelib chiqishi va tarixi, asosiy vazifasi va maqsadlari bugungi kundagi o'zni a'zo davlatlari va ularning yondashuvi, barqaror rivojlanish maqsadlari SDG kitob klubi global muamolar,

Abstract: the origin and history of the UN, its main mission and goals, its role today, the member states and their approach, sustainable development goals, SDG book club, global issues,

Kalit so'z: BMT, tinchlik, bosh assambleyasi, a'zo davlatlar, hamkorlik, inson huquqlari.

Key words: UN, peace, main assembly, member states, cooperation, human right

Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash davlatlarni o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan yagona xalqaro tashkilot hisoblanadi. D.Ruzvelt tomindan 1942-yilning 1-ynvardagi "Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasi" da il bor ishlatilgan bolsada,⁴ 1945-yil 24 oktabrda tuzilgan. Hozirgi kunda BMTga a'zo davlatlar 193 davlat va 2ta kuzatuvchi davlatlarni tashkil etadi, bular Valastin va Vatikan shahri 2 ta a'zo bo'lmagan davlatlar esa Niue Kuk orollari. BMTning asosiy vazifasi dunyoda tinchlik o'rnatish xalqaora munosabatlarni tiklash inson xalqlarni teng huquqli bo'lishi va inson o'z taqdirini belgilash, va davlatlarni manaviy va ma'rifiy rivojlantirish.

Ular o'rtasida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni yo'lga qo'yish. Barcha a'zo davlatlar nizom bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish lozim. Bugungi kunda global bo'lyotgan muamolar qashoqlikni yo'q qilish asosiy vazifasi hisoblanadi.

BMTning dunyomizni o'zgartirish uchun 17ta barqaror rivojlanish maqsadlari.

Barqaror rivojlanish maqsadlari barcha mamlakatlarni harakatga chaqirish uchun. U farovlikni yahshilash va sayyoramizni himoya qilishga qaratilgan.

*Maktab o'quvchilari uchun SDG haqida malumot

*SDG kitob klubi

*Endi harakat qiling.

SDP: 11-sinf darajasiga mo'jallangan o'quv qo'llanma tushunishni osonlashtiradi va tanqidiy fikrlashni jalb qiladi.


SDG: Kitob klubi 7-12 yoshgacha bo'lgan bolalarni rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydi. Bu klub qiziqarli o'rganish ular qanday harakatlar qilishi mumkunligini tushuntirib beradi. SDG kitob klubini elon qilarkan doktor Maykl Koulman shunday deydi: "Tasavvur qiling, osiyolik bolalar xitoy tilida xilma-xillik va inklyuziya haqida o'qiydilar; Janubiy Amerikadagi bolalar suvning hayotidagi ahamiyati haqida ispan tilidagi kitoblarni o'rganishadi. Barcha bolalar SDG ob'ektivi orqali dunyoni o'rganish va dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak."⁵

⁴ "O'qtuvchi" ilmiy, uslubiy, metodik va badiiy jurnali 33-bet

⁵ <https://www.un.org>

Endi harakat qiling: bu maqsad asosan elektr energiyasiga qaratilgan hisoblanadi.

Kambag'al mamlakatlar elektr energiyadan foydalanishi tezlashmoqda va elektr energiya sohasida katta yutuqlarga erishilmoqda. 3 milliard odamning texnologiyadan foydalanish imkoniyati keskin oshmoqda shu bilan birga Sahroi Kabir va afrikaga elektrni oshirishga ko'proq etibor berilmoqda. Bugungi kunda kelib 840 000 000 Sahroi Kabirning janubiy qismida elektr energiyasidan foydalanmasdan yashaydi. Sahroi Kabirning sog'liqni saqlash muassasi 28% elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatiga ega hisoblanadi.



1-rasm Bugungi kunda BMTga eng ko'p hissa qo'shayotgan davlatlar⁶

2023-yil statistikasiga keladigan bo'lsak Bangladesh BMT tashkilotining tinchlikparvar missiyasiga 7300 xodim qo'shgani bilan boshqa davlatlardan ancha ko'p, shu qatorida Hindiston va Pokiston ham yetakchilik qilib kelyapdi. Bu davlatlardan tashqari molyaviy jihatdan yordam berib kelayotgan davlatlar Amerika qo'shma shtatlari 27,885 Xitoy 15,21 % Yaponiya 8,56% Germaniya 6,09% tinchlikparvar operatsiyalariga eng ko'p pul qo'shib kelyotgan hisoblanadi.

BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) – bu 1945-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkilot bo'lib, uning asosiy maqsadi dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, davlatlararo muammolarni hal qilish orqali xalqlararo hamkorlikni rivojlantirishdir. BMTning asosiy organlari orasida Xavfsizlik Kengashi, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash kabi tuzilmalar mavjud.

BMTning dunyo hamjamiyatidagi roli:

1. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash: BMTning eng muhim vazifasi - global miqyosda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash. Bu tashkilot xalqaro ziddiyatlarni hal qilishda vositachilik qiladi, tinchlikparvarlik missiyalarini yuboradi

⁶ <https://www.rferl.org/a/un-funds/28373883.html>

va qurollanishni nazorat qilishga yordam beradi. BMT Xavfsizlik Kengashi bu borada kalit rolni o'ynaydi, chunki u xalqaro tinchlik va xavfsizlik masalalarida qarorlar qabul qiladi.

2. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash: BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi hamda uning turli agentliklari, jumladan UNICEF, WHO va UNDP kabi tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatadi, ta'lim va sog'liqni saqlash dasturlarini amalga oshiradi. Bu tashkilotlar global miqyosda kambag'allikni kamaytirish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni boshqaradi.

3. Inson huquqlarini himoya qilish: BMTning Inson Huquqlari bo'yicha Oliy Komissari va boshqa tuzilmalari inson huquqlarining buzilish holatlarini kuzatib boradi va ularni hal qilish bo'yicha choralarni ko'radi. BMT inson huquqlariga oid xalqaro konvensiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

4. Atrof-muhitni muhofaza qilish: BMT atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish masalalariga ham e'tibor qaratadi. BMTning Atrof-Muhit Dasturi (UNEP) global miqyosda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tashabbuslarni ilgari suradi va davlatlarni ekologik barqaror siyosat yuritishga undaydi.

5. Xalqaro hamkorlik va diplomatiya: BMT, shuningdek, davlatlararo va mintaqaviy muammolarni hal etishda diplomatik platforma vazifasini o'taydi. U turli mamlakatlar o'rtasida muzokaralar o'tkazishga yordam beradi va xalqaro hamjamiyatni muhim global masalalarni muhokama qilish uchun bir joyga to'playdi.

Xulosa. Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyo hamjamiyatidagi roli beqiyosdir. U nafaqat xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishni rag'batlantirishga ham hissa qo'shadi. BMTning faoliyati global muammolarni hal etishda muhim o'rin tutadi va u davlatlararo hamkorlik va tushunishning asosiy omilidir. Shu bilan birga, BMT doimiy ravishda o'zining samaradorligini oshirish va global o'zgarishlarga moslashish ustida ishlashni davom ettirishi kerak.

TOPIK HAQIDA TUSHUNCHA

Nasrillayeva Marjona Adxam qizi¹

*¹Xalqaro Nordik universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li²

*²Xalqaro Nordik universiteti doktranti
r.shodmonov@nordicuniversity.org*

Annotatsiya: Topic ya'ni koreys tilini bilish darajasini aniqlovchi test bo'lib biz uni qanday topshirishimiz haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.